

**"ALISHER NAVOIY" ROMANIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI
(ISAJON SULTON ASARI ASOSIDA)**

Mo'minova Feruza Farmonovna

BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi II bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli adib Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanidagi Alisher Navoiy siyosining eng muhim qirralarini ochishga alohida e'tibor berilgan.Unda Alisher Navoiy hayotining ko'pgina lavhalari,ularda namoyon bo'lgan buyuk insonning fazilatlari tahlili o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Isajon Sulton, Alisher Navoiy, roman, Hiriyl, Muhammad Ali tag'oyi,hikmat va ilm,Shayx Sudur, Sarafiddin Ali Yazdiy, Lutfiy, qutb,S amarqand, madrasa, Fazlulloh Abullays, Qur'on, sura, ka'bapo'sh, mutafakkir.

Buyuk shoir va mutafakkir,o'zbek xalqining faxr-u iftixori bo'lgan bobokalonimiz Alisher Navoiy haqida,mana olti asrdirki,ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi va bu jarayon hamon davom etmoqda.Shulardan biri bo'lgan taniqli adib Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani haqida fikr yuritmoqchimiz.To'g'ri,Oybekning "Navoiy" romani bor edi,yana bitta roman nima uchun kerak,muallif qanday yangilik qilmoqchi kabi savollarga Hazrat Navoiyning mashhur baytlari bilan javob bermoqchimiz:

Ani nazm etki,tarhing toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay...
Hamul yerda emas gul istamak xo'b,
Bu bo'ston sahnida gul ko'p,chaman ko'p⁵.

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani 2016-2020-yillarda yozilib,2021-yilda nashr qilingan.Roman voqealari to'rt faslga bo'lingan bo'lib,bu fasllar Alisher Navoiyning "Xazoyinul-maoniy" kulliyotidagi devonlar nomi bilan atalgan.Asarda o'ziga xos muqaddima va xotima bor.Isajon Sulton Alisher Navoiy haqidagi barcha manbalarni o'rganib chiqqan,Qur'on va hadislarni yaxshi biladi.Shuning uchun ham u tasvirlagan Alisher Navoiy haqiqiy musulmon,Allohning solih bandasi,go'zal xulq va taqvo sohibi,roman qahramonlaridan Sulton Husayn ta'biri bilan aytganda, "etagi pok" inson.Asarda deyarli biror o'rinda shoirning tashqi qiyofasi tasviri uchramaydi,ammo uning ichki olami,fazilatlari ta'rifini turli qahramonlar nutqida uchratamiz.Dastlabki tavsif "Havzi Mohiyon"da:

"Alisher ila tag'oyi "Havzi Mohiyon"ga kirib borar ekanlar, kishilar ularni nazardan qochirishmadidi.

- Bu xushsurat bolakay kim emish?
- G'iyosiddin Mansur bahodirning o'g'li Alisherbek-ku? Qabatidagi yigit unga tag'oyi bo'ladi, usta sarbozlardan.
- Shoshmang, G'iyosiddin Kichkinani aytyapsizmi?
- Ha, o'sha kishi.
- Ammo, jussasi sirayam kichkina emas-ku?

⁵ Alisher Navoiy Xamsa.T,Adabiyot va san'at nashriyoti,1986,75-bet.

- U kishining otasi Amir Temurning o'g'li Umarshayx Mirzo bilan ko'kaldosh, ya'ni emikdosh bo'lgan ekanlar. Har ikkovining ham G'iyosiddin degan o'g'li borligi uchun G'iyosiddin Mansurga "katta", bu kishiga "kichkina" deb laqab berishgan ekan, - dedi boyagi oq taylasonli kishi, salmoqlab. -Amir G'iyosiddin Kichkina juda g'ayratli, mudom sultanat xizmatida bo'lib kelgan bahodirlardan sanalgaydir".

Adib "Havzi Mohiyon" voqealarini davom ettirib ,o'sha paytdagi eng katta tantana bo'lgan Shohruh Mirzo Makkaga ikki yil oldin ka'bapo'sh yuborgani va uni olib borgan Shayx Nuriddin va Mavlono Shamsiddinlarning qaytib kelishlari

munosabati bilan butun xalq tantana qilayotganini,bozorlarni,do'konlarni,xayriya oshlarini,turli kasb egalarini tasvirlar ekan,bolakay Alisherning kelajagi haqida beixtiyor bashorat qiladi:

"Shu kichik jussali, tiniq nigohlisi bolakay kelajakda butun turk mamlakatlari uzra fikr qanotini keng yoyadigan, qushlar-u hayvonot olamlaridan to o'n sakkiz ming olam mo'jizalarigacha nazar soladigan, ma'rifat vodiylarini kezib, Adam dashtidan xabar oladigan avliyo bo'lib etishishi Muhammad Ali tag'oyining ham, boshqalarining ham xayoliga kelmasdi. Barchasi uning kun kelib ulg'ayib, botir navkar yoki saroy a'yonlaridan bo'lib etishishini orzulardi"⁶

Isajon Sulton romanda shoirning ismi haqida ham o'zining mulohazalarini keltiradi."Cho'li Iroq" deb nomlangan bo'limda Mirsaid Kobuliy jiyani olti yoshli Alisherning Sa'diy Sheroziy g'azalini sharhlaganini ko'rib,Shayx Sudurning duosi ijobat bo'lganini so'zlaydi.Shayx Sudur kim edi?

"Shayx Sudur G'iyosiddinbeklar oilasining piri bo'lib, taomilga ko'ra, o'g'lon tug'ilganida bir tuya va bir ot atab, huzuriga borilgan edi. Shunda Shayx Sudur:

- Bu o'g'lon ruhlar olamidan yorug' dunyoga ramazonning o'n yettinchi kuni kelibdi. Parvardigori olam uning jonini ayni shu mahalda yer yuziga yuboribdi, hikmatiga nima ham deya olardingiz?⁷ Olamning so'nggi payg'ambariga vahiy va Qur'on shu kuni tushirilgan bo'lib, Badr g'alabasi ham shu kuni ro'y bergen. Shohimardonning aziz boshiga xuddi shu kuni qilich solinib, shahodatga yetishgan edi...Shunday deb, bir oz o'ylanib qoldi-da, so'ng yuzi yorishib, "Unga go'daklik chog'idayoq hikmat va ilm ato etdik" oyatini o'qidi. Shayxning shu so'zlari sabab bo'lib, unga Alisher deb ism berildi. Shayx Sudur karomat qilganidek, go'dakligidanoq o'zining mazmun va mulohaza to'la so'zlari bilan barchani hayron qoldirib ulg'aydi". Demak, Isajon Sultonning fikricha, bo'lajak shoirga

tavallud kuni munosabati bilan Alisher ismi qo'yilgan.

Adib Alisher Navoiyni komil musulmon,haqiqiy mo'min sifatida tasvirlar ekan,uning hayotida Qur'onning beqiyos o'rnini mahorat bilan ifodalaydi.

Olti yashar Alisher ulug' tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan suhbatlashar ekan,Qur'onning Taborak surasiga kelganini aytadi.Shunda olim undan kichik bir surani aytib berishini so'raganida "Tabbat"(Masad) surasini yoddan qiroat qilib,uni shunday chiroyli sharhlaydi(Olti yashar bola!):

⁶ Isajon Sulton.Alisher Navoiy.Toshkent,2021,8-bet

⁷ Isajon Sulton.Alisher Navoiy.Toshkent,2021,13-bet

⁸ Isajon Sulton.Alisher Navoiy.Toshkent,2021,52-bet

” - Men anglashingiz oson bo'lishi uchun “Tabbat” dedim, - dedi Alisher,
bu so'zi bilan cholni yana zavqlantirib. Qisqa sura qiroat qilingach, chol so'radi:

- Nega Abu Lahab tirik chog'iidayoq “halok bo'ldi” deb aytildi
?Alisher javob berdi:- Endi uning o'lik-tirikligining ahamiyati yo'q, chunki hukmi
qiyomatga qolmasdanoq o'qilib bo'lindi.

- Barakalla! - deb tahsin aytdi chol.⁹

Alisher Navoiy Samarqandda yashagan chog'ida otasining shahid ketgani va onasining vafot etganini eshitib,chuqur qayg'uga botadi va “Muzammil” surasini o'qib,ularning haqiga duo qiladi.O'z qayg'usini yengillashtirish va taskin uchun “Sharh”surasini o'qiydi.Madrasa ta'limida Fazlulloh Abullaysdan fiqh(islom qonunshunosligini),mudarris Xoja Misliydan tarix,jug'rofiya,handasa,tibni o'rgandi va bularning barchasi Qur'on ta'limotiga asoslangan edi.

Adib shoir hayotidagi har bir muhim voqeani tasvirlar ekan,uning mohiyatini,bosh qahramonning fazilatlarini personajlar nutqi orqali ifodalaydi.

Taftda tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bolakay Alisherni duo qiladi:

“Kattalar bilan bir muddat suhbatlashilgach, chol Alisherga ishora qilib:

- Men kecha Qum shahriga ketmoqchi edim, biroq hech kutilmaganda tuyalarimiz dardga chalinib qoldi, - dedi. - Endi bilsam, bejiz emas, mana bu zakovatl o'g'lon bilan ko'rismog'im uchun ekan. Mosholloh, zakosi ichiga sig'may, to'lib-toshib turibdi. Ijozat bersangiz, haqqiga bir duo qilsam. Shoyad Tangri taolonning marhamati bilan fazilatli, ardoqli kishi bo'lib etishsa¹⁰.

Mavlono Lutfiyning mashhur ta'rifini adabiyot kitoblarimizdan o'qiganmiz.Lekin adib uni chiroyli tarzda ifodalab bergen:

“Lutfiy zavq-u hayratidan boshini sarak-sarak qilib:

- Mosholloh! Istasa chumolini Sulaymonga nasihatchi aylar, istasa dunyo shohligini bir uzukka joylar! - dedi keng peshanasidagi, ko'z tegrasidagi ajinlari yoyilib, yuzi favqulodda nurli tus olib. - Istasa, Lutfiy eta olmagan ma'nolarni shu yigitcha tilidan ayttirur! Men turkchada o'zimni quyosh deb fahmlar edim, bu yoshimga qadar men orzulagan latofatni bu o'g'lon

shul yoshida bitibdi. Valloh, agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu birgina g'azalga almashtirardim va agar Alisherbek bunga ko'nsa, bu ishimni zo'r muvaffaqiyat deb hisoblardim!¹¹

Samarqandda unga ta'lim bergen Fazlulloh Abullays birinchi marta ko'rganidayoq Alisherning go'zal xulqini e'tirof etadi:

“Fazlulloh Abulays yigitning salomlashishidan to xonaga kirishi,o'tirishi, luqma yeishi va minnatdorchilik bildirishigacha - har odobni o'z o'miga qo'yishiga ko'ngli yorishib razm solib turardi. Uni mavlono Jomiydek kishi o'z qanoti ostiga olgani, darhaqiqat bejiz emas, olyi xulqli, yuksak axloqli yigit ekan.¹²

⁹ Isajon Sulton.Alisher Navoiy.Toshkent,2021,55-bet

¹⁰ Isajon Sulton.Alisher Navoiy.Toshkent,2021,56-bet

¹¹ Isajon Sulton.Alisher Navoiy.Toshkent,2021,74-bet

¹² Isajon Sulton.Alisher Navoiy.Toshkent,2021,137-bet

Romanda bunday misollar juda ko'p. Eng muhimmi, Isajon Sulton yaratgan Alisher Navoiy obrazi ko'nglimizga yaqin, e'tiqodimizga mos, o'zimiz bilgan, yaxshi ko'rgan siymo ekanligi quvonarlidir. Fikr-mulohazalarimizni romanga so'ngso'z

(Maktub) yozgan mashhur yozuvchi Xayriddin Sultonning quyidagi e'tirofi bilan tugatmoqni ma'qul ko'rdik:

"Shu nuqtai nazardan, "Alisher Navoiy" romanini tarixiy asar oldiga qo'yiladigan ana shunday sodda, lekin nihoyatda og'ir talabga to'la javob berishi bilan meni nafaqat hayratga soldi, balki behad quvontirdi. Mening fikrim bo'yicha, Mir Alisher Navoiy nainki o'rta asrda yashab o'tgan bir mutafakkir, aksincha, u har bir davr uchun zamon kishisidir. U bizning donishmand zamondoshimizdir. Ulug boboniz asarlarini necha yuz yillar davomida tushunib o'qigan va bugun ham anglab o'qiyotgan insonlar o'z yuraklarini og'ritib qiyayotgan savollarga, o'z zamonasiga oid barcha ma'naviy va ruhiy muammolarga javob topa oladi"¹³.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy Xamsa. T, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
2. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Toshkent, 2021.

¹³ Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Toshkent, 2021, 446-bet